



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ibragimov A'lamjon Amriloyevich

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori,
pedagogika fanlari doktori dotsent
alamjonibragimov@gmail.com*

PBL MENTORLARI UCHUN KONSULTATIV QO'LLAB- QUVVATLASH MAJMUysi

Annotatsiya. Hayotiy muammolarni hal qilishga o'rgatuvchi zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar o'ziga xos amalga oshirish jarayoniga ega bo'lib, o'qituvchidan nafaqat o'z fanini mahorat darajasida bilish, balki mentorlik qila olishni ham talab etadi. Mazkur maqolada muammoga asoslangan o'qitishda mentorlikning mohiyati yoritilgan. Jumladan, mentor faoliyatini amaliyotda ko'rsatib berish maqsadida keys taqdim qilingan va uning bajarilish bosqichlari uchun zaruriy konsultativ qo'llab-quvvatlash majmuyi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mentorlik, dastur, keys, maslahat, yetakchi guruh, doimiy kuzatuv, aniqlik.

КОМПЛЕКС КОНСУЛЬТАТИВНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ МЕНТОРОВ PBL

Аннотация. Современные подходы и технологии, обучающие решению жизненных проблем, имеют особый процесс реализации и требуют от преподавателя не только владения своим предметом, но и менторства. В данной статье освещается суть менторства в проблемно-ориентированном обучении. В частности, в целях отображения деятельности ментора на практике представлен кейс и разработан поэтапный комплекс необходимого консультативного сопровождения.

Ключевые слова: менторство, программа, кейс, наставничество, ведущая группа, непрерывное сопровождение, точность.

CONSULTATIVE SUPPORT PROGRAM FOR PBL MENTORS

Annotation. Modern approaches and technologies teaching to solve life problems require not only expertise in one's subject matter from the teacher but also the ability to mentor. This article highlights the essence of mentoring in problem-based learning. Specifically, a necessary consultative support program has been developed for the effective implementation of mentoring activities, aimed at demonstrating mentorship in practice and outlining the necessary steps for its implementation.

Keywords: mentoring, program, case, advice, leading group, continuous monitoring, clarity.


KIRISH. Mentorlikka murabbiylit tushunchasi sifatida qaralganda, uning G‘arb pedagogikasida Suqrot, Platon, Aristotel, Sharq ilmida esa Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino davridan beri mavjud. Bugungi kunda ma’lum bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun kishilik jamiyatida mentorlarga ehtiyoj kuchayib borayotganligi ma’lum. Demak, mentorlik – bu boshqa bir shaxsga uning shaxsiy-kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi, maqsadga erishish jabhasiga yo’naltira oladigan jarayonni boshqaruvchi shaxsdir. Ya’ni u fan o‘qituvchisidan farqli ravishda amaliyotdagi butun bir jarayonni his qila oladi hamda hayotiy qoidalar asosida faoliyatni tashkil qiladi. Muammoga asoslangan o‘qitish (PBL) yondashuvidagi eng muhim talab o‘qituvchining mentorlike darajasini egallash zaruriyatidir.

MUHOKAMA VA NATIJA. Muammoga asoslangan o‘qitishni tashkillashtirishda mentorlik uchun konsultativ qo’llab-quvvatlash va ilmiy-metodik kuzatuv muhim ahamiyatga ega. Chunki bu jarayon mentor uchun faoliyatini olib borishda tashqi ko‘makka bo‘lgan ehtiyojni qoplash, zarur holarda korreksiyalash uchun imkon yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish jarayonida, yoki uzoq muddatli maqsadli kurslarda tinglovchilar bilan birga bajarish uchun muammoga asoslangan o‘qitish bo‘yicha keys hamda uni bajarishga doir o‘qituvchi faoliyatiga moslashtirilgan 12 maslahatni konsultativ qo’llab-quvvatlash majmuyi sifatida keltirishni lozim ko‘rdik (Samy A. Azer va boshqa olimlarning tavsiyalari asosida shakllantirilgan).

Eslatma: Muammoga asoslangan o‘qitishda jarayon 10-12 kishilik kichik guruhlarda, alohida loyihalashtirilgan o‘quv dasturi asosida (masalan, 8 haftalik) rejali amalga oshirilishi zarur. Dastur bo‘yicha tayyorgarlik harakatlari muammo qo‘yilishidan avval boshlanishi lozim.

Keys. O‘qituvchi qay tarzda darsning yakuniy natijasida emas, balki dars mobaynida o‘quvchilarning nafaqat bilimi, balki ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini ham samarali rivojlantirishi mumkin?

Mazkur keys yechimi uchun quyidagi konsultativ qo'llab-quvvatlash majmuyi tavsiya etiladi (1-rasm).



1-rasm. Muammoga asoslangan o'qitishda konsultativ qo'llab-quvvatlash majmuyi

1-maslahat. Yetakchi guruhlarni shakllantirish.

Ideal holatda, yetakchi guruhlar jarayon boshlanishidan kamida 2-3 oy avval tuzilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan. Chunki, tadqiqotga doir adabiyotlarni izlash, tahlil qilish, amalga oshiriladigan ishlar, xatti-harakatlar, ehtimoliy vaziyatlarni rejalahtirish va muvofiqlashtirish uchun yetarlicha vaqt berilishi muvaffaqiyatning muhim kalitidir. Guruhlar tarkibi ta'lim dasturlarida mavjud fanlar o'qituvchilaridan (yoki tegishli kompetentlilikka ega bo'lgan xodimlardan) shakllantiriladi, misol uchun, ularni ijtimoiy-gumanitar fanlar, aniq va tabiiy fanlar kesimlarida ajratish mumkin. Guruh a'zolarini MAO'ga doir holatlarni yaratish, dasturlar tuzishda mavjud andazalardan foydalanish, o'qituvchi uchun qo'llanmalar ishlab chiqish, zaruriy manbalar (dalil, rasm, matn) yig'ish bo'yicha seminarlarda o'qitish yaxshi samara beradi.

Yetakchi guruhlarga muayyan majburiyatlar yuklatiladiki, ularning sifatli bajarilishi jarayon boshidayoq muvaffaqiyatlari natija kafolatini oshiradi:

- o'qitish maqsadini chuqur muhokamalar, o'zaro fikr almashishlar asosida aniqlashtirish;

- muayyan maqsadlar(konsepsiya)ni voqealarga va ishtirokchilar uchun muhokamaga yordam beruvchi vaziyatlarga aylantirish masalasini hal qilish;

- zaruriy adabiyotlarni o'rganish va manbalarni to'plash;

- tayanch matndagi ishoralarni (muammolarni) aniqlash va muhokamani boshlash uchun asosiy tasvirlarini loyihalash;

- muammo bo'yicha asosiy tavsiflarni aniqlash (ta'lism oluvchining yosh, individual, psixologik xususiyatlari, jinsi, etnik kelib chiqishi, umuman, keysda tushuntirilishi zarur bo'lgan barcha holatlar tasviri);

- jarayonni rejalashtirish, har bir bosqichga taalluqli ta'limiy masalalar bo'yicha qaror qabul qilish;

- ishga turki beruvchi tayanch matnni yozish (u ishning boshlang'ich qismini ifodalaydi, qoida tariqasida 5-7 qatordan iborat bo'ladi hamda o'qituvchilar uchun har bir ishoraga tegishli farazlarni aniqlashtirish va yechimi zarur bo'lgan muammolarga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi);

- trenerlar uchunqo'llanma yaratishva zarur resurslarni tayyorlash;

- ishning dolzarbligini ta'minlash (doimiy nazorat, fikr-mulohazalar, yakuniy muhokama);

- uchrashuvlar, isjni muvofiqlashtirib borish, zarur hollarda qayta ko'rib chiqish va yakunlash bosqichlarini rejalashtirish.

2-maslahat. Keysning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlarini aniqlashtirish.

Muammoga asoslangan o'qitishda keyslar strukturasidagi asosiy unsur ta'lism maqsadlarini aniqlashdir. Odatda, ish qo'llaniladigan o'quv jarayoni o'qitish maqsadlari yoki o'rganish natijalariga chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Maqsadlar ta'linda ma'lum natijalarga erishish yoki muayyan kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi. Bu esa bir qator kognitiv ko'nikmalarga murojaat qilish va ishda ko'tarilishi lozim bo'lgan tamoyillarni belgilaydi. Har bir keysda bir nechta maqsadlar qo'yilishi tabiiy holat sifatida qabul qilinishi zarur (misol sifatida taqdim etilayotgan ushbu muammoli keysda ham 6-7 ta maqsad mavjud). Shuningdek, maqsadlar integrativ xarakterga ega bo'lishi, professional, ijtimoiy, ruhiy, xulq-atvor va axloqiy masalalarni birlashtirishga qaratilishi kutilgan natijalarning to'liqligini ta'minlaydi. Maqsad o'quvchilar nima qilishi lozimligini aniq tasavvurga keltiradigan fe'l bilan boshlanishi muhim. Misol uchun: o'zaro bog'lash, izohlash, tushuntirish, dalillarni taqdim etish, asoslash, birlashtirish, munosabatlarni ko'rsatish, mexanizmlarni qurish, muhokamadan o'tkazish va boshqa. Jarayonning boshida

maqsadlarni aniqlash yetakchi guruhga ishni keng ko‘lamli tuzish va yakundagi tafsilotlarni to‘g‘ri ishlab chiqishda yordam beradi.

3-maslahat. Muammolar uchun andaza tuzish.

Keys yechimi uchun ta’lim maqsadlariga mos keladigan andaza tuzish zaruriyati vujudga keladi. Chunki o‘rganilgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, mukammal yechimiga ega bo‘lgan muammoga asoslangan o‘qitishda foydalaniladigan keyslar loyihalangan andazaga ega bo‘lgan. Andazani loyihalash birmuncha murakkab jarayon bo‘lib, unda tyutorning mutaxassislardan maslahat so‘rashi oqilona yondashuv hisoblanadi. Andaza MAO‘ning asosiga aylanadi hamda har bir metodik yoki o‘quv qo‘llanmada taqdim etilishi kerak bo‘lgan ish maqsadlari, annotatsiyalar va ma’lumotlar tartibini o‘z ichiga oladi. Misol sifatida, yuqorida keltirilgan keys uchun andaza yaratishda quyidagi shaklda topshiriq va savollar qo‘yilishi to‘g‘ri yo‘nalish tanlashga imkon berishi mumkin:

- dars rejasini ishlab chiqayotganingizda uning yakunida o‘quvchilar nimani bilishi yoki qilishini xohlayotganingizni (rejalashtirayotganingizni) o‘qituvchi sifatida chuqur o‘ylab ko‘ring;

- o‘quvchilar tushunishi zarur bo‘lgan eng muhim akademik mazmun nimani ifodalashini aniqlashtiring;

- hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va samarali muloqot kabi qaysi hayotiy ko‘nikmalar bu darsni rivojlantirishga yordam beradi?

Shuningdek, quyidagilarni inobatga olish andazani yaratishning mantiqiy asoslarini belgilashi mumkin:

- topshiriqlarning kognitiv qobiliyatlarga murojaatini ta’minlash;

- bir xil dizayn va voqealar ketma-ketligiga rioya qiladigan holatlarni yaratish (bu izchillik o‘qituvchilarga o‘z munozaralarida avtonom holda qolish imkonini beradi);

- o‘quv dasturining muayyan bosqichiga mos keladigan holatlarni loyihalash (masalan, assosiy fanlarga e’tibor qaratish, farazlarni takomillashtirish uchun deduktiv nazariyadan foydalanish, boshqaruv rejasini ishlab chiqish, mavjud variantlar muhokamasiga urg‘u berish va b.);

- o‘qituvchilarga o‘z faoliyatiga doir ta’lim muammolarini aniqlash va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini berish.

Topshiriqlar o‘rtasidagi izchillik va tizimlilikni ta’minlash maqsadida andaza quyidagi kognitiv domenlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- har bir muammo uchun tegishli farazlarni yaratish;

- so‘rov rejasini ishlab chiqish va qo‘srimcha ma’lumot to‘plash;

- dars tahlili, tekshiruvlar va yangi metodlarni sharhlash;

- noaniqlik bilan kurashish va qarorlar qabul qilish uchun asosli yondashuvni ishlab chiqish.

4-maslahat. Integratsiya, topshiriqning mantiqiy oqimi va haqiqiyligi haqida bosh qotirish.

Muammoga asoslangan o'qitish dasturlari uchun tuzilgan holatlar timsolni ifodalashi hamda o'quv rejasining asosiy qismlariga murojaat qilishi kerak. Demak, keys ilmiy asoslangan va mantiqiy qabul qilingan yechimni aks ettiruvchi, haqiqiy bo'lishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun yetakchi guruhrar haqiqiy vaziyatlardan foydalanishi, ularni o'quv rejasining biror bir bosqichiga, shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlariga moslashi yoki o'zgartirishi mumkin bo'ladi.

5-maslahat. Topshiriqlarni o'qituvchilarning kasbiy va o'quv ehtiyojlariga moslashtirish.

Yetakchi guruhrar har bir fan uchun alohida vaziyatlar yaratishi mumkin. Holatlar avvaldan o'rganilgan metodikalarga asoslanishi, lekin vaziyatlar o'qituvchilarni yangicha fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirishi lozim.

6-maslahat. Keysni jozibali va tetiklik bilan boshlanishiga erishish.

Muammoga asoslangan o'qitishda tayanch g'oyalari va harakat boshlang'ich nuqtadir. Muammoni yechishda ular ishning asosiy maqsadlarini hal qiladi, ya'ni:

- 3-4 ta asosiy muammolarni ajratib ko'rsatish;
- o'qituvchilarning keng muhokamasini rag'batlantirish;
- hozirgi zamondan foydalanish;
- yoshi, ishi va kelib chiqishi haqida ma'lumot berish;
- o'quv jarayoni va darslardan havola keltirish;
- haqiqiy ssenariyni aks ettirish;
- innovatsion dizaynga ega bo'lish.

7-maslahat. Muammo va topshiriqlar uchun tasavvurlarni loyihalash.

Yaxshi o'ylangan vizual belgilar, ishoralar keys manbasiga yangi ma'lumotlarni qo'shami. O'quvchilar bilan bo'lgan norasmiy suhbatlar, o'zaro munosabatlarni ko'rsatuvchi qisqa tasvirlar, medialar, mobillik, virtual MAO' holatlari, vizuallik, o'qituvchilarning kuzatish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan fon hamda sharoitlar keys bo'yicha tasavvurlarni loyihalashda muhim ahamiyatga ega. Bunday jarayon o'qituvchida kognitiv egiluvchanlikni oshiradi.

8-maslahat. Deduktiv yondashuv qo'llanilishiga ishonch hosil qilish.

Sifatli shakllantirilgan keys voqealarning mantiqiy oqimini ko'rsatishi, avval egallangan bilimlardan foydalanish, tajriba va mahorat darajasini qayta ko'rib chiqish, o'z tadqiqotining farazlarini tekshirishga rag'batlantirishi kerak. Ma'lumki, deduktiv yondashuvda bu muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchilar yangi ma’lumotlardan munozara uchun foydalanishi, ilgari surilgan farazlarda bir-biriga qarama-qarshi dalillarni qo‘llashi ishtirokchilarda o‘z fikrini aniqroq ifodalashga imkon beradi:

- o‘z qarashlarini himoya qilish uchun mavjud dalillardan qanday foydalanishni o‘rganish va qaror qabul qilishda ilmiy yondashuvlarga tayanish;
- ma’lumot to‘plash, saralash va ishonchlisini aniqlashni o‘rganish;
- egallangan bilimlarni sharhlash;
- farazlarni tartiblashda yangi bilimlardan foydalanish;
- farazni katta va kichik ehtimolli guruhlarga bo‘lish;
- avvalgi o‘rganilgan masala(konsepsiya)larni qayta ko‘rib chiqish;
- qaror qabul qilishda dalillardan oqilona foydalanishni o‘rganish.

9-maslahat. O‘quv maqsadlari to‘g‘ri va aniq ifodalanganligiga ishonch hosil qilish.

Bir necha bor ta’kidlanganidek, keysning tuzilmasida birinchi qadam ta’lim maqsadlarini aniqlashtirish hisoblanadi va yetakchi guruhlar tomonidan muayyan algoritm rejlashtirilgan holda kiritiladi. Muammolarni aniqlash davomida ta’lim maqsadlari keys topshiriqlari, amaliy ishlar va uning ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilishi lozim. Shuning uchun o‘qituvchilarni rag‘batlantirish, qo‘yilgan maqsadni ular bilan muhokama qilib borish ishonchlilik darajasini oshiradi.

10-maslahat. O‘qituvchilarning keys borasidagi takliflarini tahlil qilish.

Muammoga asoslangan o‘qitish jarayonida muvaffaqiyatlari holatlarni yaratishning eng muhim jihatni, har bir ishtirokchining jarayonga bog‘liqligi, muhim ekanligini his qildirish va to‘liq safarbar qilishdir. Qo‘yilgan muammolar ishtirokchilarning ta’limga doir maqsadi, kasbiy ehtiyoji, keysni bajarishda o‘z o‘rnining qay darajada ekanligini aniqlay olishi hamda qobiliyatlarini kashf qiladi. Shunday ekan, jarayonni to‘g‘ri tashkillashtirish o‘qituvchilarga savol yoki javob yo‘llash, tadqiqot olib borish, muammolarni muhokamadan o‘tkazish, noaniqlikni payqash, tanqidiy tahlillash, qaror qabul qilish, birgalikda ishlashga sharoit yaratish, egallagan bilimlarini haqiqiy hayotda qo‘llash imkonini, shuningdek, o‘z faoliyati, intilishlari, erishgan natijalaridan qoniqish hissini beradi.

11-maslahat. Har bir holat uchun tyutor, maslahatchi-o‘qituvchi qo‘llanmasini tuzish.

Muammo yaratuvchi muallif tomonidan tyutor, maslahatchi-o‘qituvchi uchun uslubiy ko‘rsatma yoki qo‘llanma ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qo‘llanma mualliflarining MAO‘da yordam berish tajribasi bo‘lishi ham jiddiy omillardan biridir. Chunki, qo‘llanmada fundamental ma’lumotlar, metodik yordam mazmuni, maqsad, asosiy shartlar, ishni tashkil etish, keysni bajarish bosqichlari, bajariladigan o‘quv faoliyati, qo‘shimcha tushuntirishlar, eslatmalar,

soddalashtirish uchun beriladigan savollar namunalari, asosiy adabiyotlar ro‘yxati, muxtasar aytganda, ilmiy-metodik qo‘llab-quvvatlash mazmuni ifodalanishi lozim.

12-maslahat. Fikr-mulohazalarini o‘rganish va rag ‘batlantirish.

Keysni e’lon qilish yoki amalga oshirishdan avval uni diqqat bilan o‘rganish, tahlillash talab etiladi. Ularni baholashda quyidagi savollarga murojaat qilish keysning sifat darajasini aniqlashga imkon yaratadi:

1. Keys ta’lim oluvchiga yo‘naltirilganmi yoki ta’limga qaratilganmi?
2. Keysning maqsadlari ishda aniq ifodalanganmi?
3. Topshiriq mazmunining oqimi mantiqiyimi?
4. Keys haqiqiy holat(voqeasi)ni ifodalaydimi?
5. Keys o‘qituvchilarining avvalgi bilimlariga asoslanadimi?
6. Tayyorlangan javob grammatik xatolar yoki muammolardan xolimi?
7. Muammo innovatsion va ijodiy tarzda yoritilganmi?
8. Keysda o‘quv dasturidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladimi?

Keysni shu tartibda muhokamadan o‘tkazish, so‘ng masalahatchi va o‘qituvchilarining fikr-mulohazalarini o‘rganish hamda inobatga olish bajarilgan ish natijasini yaxshilash, sifatini oshirish uchun muhim manba bo‘lib hisoblanadi.

XULOSA. Umuman olganda, muammoga asoslangan o‘qitishning o‘qituvchini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimiga kiritilishi nafaqat pedagog xodimlar faoliyatiga hayot davomida o‘qish tamoyilini singdiradi, balki umumta’lim maktablari ta’limi sifatining ham ijobjiy tomonga sezilarli o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Chunki, aynan shu yondashuv o‘qituvchi faoliyatiga munosabatni o‘zgartirish, o‘qitish tizimi muammolari yechimini topishga turtki beradi. Quyidagi xulosalar muammoga asoslangan o‘qitishni yuqori samaradorlik va natijadorlikka ega bo‘lgan ijobjiy pedagogik hodisa sifatida baholash imkonini beradi:

MAO‘da muammoni hal qilishni tushunishga doir butun jarayon (o‘quv maqsadi, rejasi, mazmuni, shakllari, vositalari, dars jadvali, konsultativ faoliyat, monitoring, baholash) qamrab olinishini taqozo etishi uni “texnologiya” sarhadlaridan chiqish hamda “ta’lim amaliyoti turi” nuqtayi nazaridan qarash mumkinligini bildiradi;

o‘qituvchining roli o‘zgaradi, u mentor, yordamchi, maslahatchi, muvofiqlashtiruvchi, qayta aloqani o‘rnatuvchi sifatida o‘quv jarayonini (darsda va undan tashqarida) qo‘llab-quvvatlaydi, tayyor bilimlar bermaydi, ta’lim oluvchilarni turli savollar berish, faollashtirish, kuzatish orqali muammoning yechimiga yo‘naltiradi;

jarayonda yangi va keng miqyosli (muammo xususiyatiga ko‘ra turli fanlarga doir) bilimlarga zaruriyatning mavjudligi sababli fanlararo aloqadorlikka mo‘ljal olish, zarur axborotlarni topish, fanning eng so‘nggi yutuqlariga tayanish, turli manbalardan

foydalanimish, ma'lumotlarni saralash, tahlillash, qayta ishlash, uzatish, o'zaro almashishning yuqori darajasi sodir bo'ldi;

jamoada ishlashning birlamchiligi ta'lif oluvchida o'z fikrini bayon etish, dalillash, o'zgalarni eshitish, konstruktiv munosabat bildirish, jamoaviy xulosalarni hurmat qilish asosida ijtimoiy moslashuvchanlik hamda kommunikativ ko'nikmalar rivojlantiriladi;

muammoga asoslangan o'qitishni amaliyotga joriy etishda ehtiyojkorona munosabat zarur bo'lib, ta'lif oluvchilarda puxta rejalshtirish, loyiha yarata olish va amalgal oshirish, tadqiqotchilik bilan shug'ullanish, jamoada ishlash, amaliyotga yo'naltirishga doir ko'nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Aks holda, nafaqat kutilgan natijalarga erishmaslik, balki ta'lif oluvchilarda o'qishga nisbatan qiziqish va ehtiyojning yo'qolishiga olib kelishi mumkin;

shu nuqtayi nazardan, muammoga asoslangan o'qitish samaradorligiga erishish uchun uni faqatgina malaka oshirish kurslarida emas, balki umumta'lif maktablari o'quv jarayoniga ham tatbiq etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayeva G. S. P5BL VOSITASIDA O 'QITUVCHILARDA KOGNITIV JARAYONLARNI FAOLLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK TALQINI //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2023. – C. 152-155.
2. Sharipboyevna F. G. P5BL YONDASHUVI VOSITASIDA SEMINAR VA MAHORAT DARSLARINI TIZIMLI TASHKIL ETISH //Современное образование (Узбекистан). – 2023. – №. 1 (122). – C. 30-37.
3. Ибрагимов А. А. ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ БИЛИМЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУАММОГА АСОСЛАНГАН ЎҚИТИШ ЁНДАШУВИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ: Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич, Самарқанд вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази доценти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 2. – С. 120-125.
4. Amrilloevich I. A. Problem-Based Learning: Content, Essence, Possibilities //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 10. – С. 2367-2377.
5. Amrilloevich I. A. The Core Principles, Significance, and Potential of Problem-Based Learning //Boletin de Literatura Oral-The Literary Journal. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 2077-2086.
6. Amrilloevich I. A. COGNITIVE MOBILITY OF THE TEACHER: APPLICATION IN PEDAGOGICAL PRACTICE, CONTENT, ESSENCE AND

STRUCTURE //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

7. Amrilloevich I. A. Factors Affecting Teachers' Subjective Expectations from Continuous Professional Development //RES MILITARIS. – 2022. – T. 12. – №. 3. – C. 3877-3884.